

**LIRIKADA AYRILIQ MAVZUI VA UNING ATRIBUTLARI
(TAQDIR, O'LIM, BEVAFO YOR, UMID, RUHIY CHINIQLASH...)**

Nabiyeva Nodira Saidovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*

UDK: 821.512.133

saidovnanodira9@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zebo Mirzoning xiyonat va vafosizlik mavzusidagi tanlab olingan ayrim she'rlarining badiiyati tahlil va talqin qilingan. Shuningdek, Zebo Mirzo she'rlarida musavvirova ruh bor, dard bor, olov bor. Bu so'zlarni ushlab ko'rasiz, haroratini his qilasiz, ranglaridan hayratlanasiz. Va ko'nglingizga kirib borayotgan Tirik So'zning tovushlarini eshitasiz. Shoirira lirikasi intim-lirika qonuniyatlariga to'la javob bera oladi. Intim-lirika qalbning qalbga, shaxsning shaxsga dil rozini, arzu holini ifodalovchi janr ekanligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: xiyonat, vafosizlik, ayriliq, yolg'izlik, azob, ishq, qabr, dard, ko'chim va b.

Yer yuzida qancha odam bo'lsa, shuncha taqdirlar ham bor. Kimnidir baxtidan o'lim ayiradi, kimnidir xiyonat, vafosizlik, kimnidir tushunmovchiliklar va hokazo. Sabablar bisyor topiladi. Iste'dodli shoirira Zebo Mirzo she'rlarida ayriliqning mungli nolalari silqib turadi. Uning she'rlarida chinakam insoniy dard, dil og'riqlari bor. Uning she'rlarida rad etilga muhabbat alamini sezasiz. Olovli ishq va umidsizlik. Lirik qahramon yorini behad sevadi, unga ko'ngil beradi, uning ishq bilan yonib kul bo'layozadi.

Ishqning yoqasida qo'llarim qoldi,
Oyning tushlarida gullarim qoldi.
Bag'ringda quvg'indi tunlarim qoldi,
Sen sevmading,
Nega sevmading?¹

Haqiqiy yolg'izlik odamlar orasida turib yolg'iz qolishdir, aslida. Haqiqiy ayriliq ko'ngillarning ayro tushganligidir. Agar Nodirabegim, Zulfiyalar o'lim tufayli sevgan kishilaridan ayrilgan bo'lsalar, Zebo Mirzo taqdiri boshqacha kechdi. U javobsiz sevgi, xiyonat tufayli ayriliqni kuyladi. Zebo Mirzoning "Tun malikasi", "Baxtsiz qizning ertagi", "Men sizni sevmagayman", "Bugun...", "Muhabbat – qabrtosh", "Umrimni o'tkinchi saboga berdim", "Muhabbat", "Visol", "Bag'ring

¹ https://tgstat.com/uz/channel/@Zebo_Mirzo

menga ochilgan qabr” kabi she’rlari bir-birini to’ldirib keluvchi o’ziga xos uyg’unlik, fazilatlarga ega bo’lgan mushohadalardir.

Isming –yuragimga urilgan xanjar,

Sug’urib olsalar o’laman.

Men seni shu qadar muhabbat

Va azob bilan sevaman!

Ishq-muhabbat hammaga ham nasib qilavermaydi. U inoyat qilinadi. Ishq Ollohning insonga bergan inoyati. Shoir sevgan kishisining nomini “yuragiga urilgan xanjar”ga bejiz o’xshatmagan. Xanjarning vazifasi nimtalash, burdalash, bo’laklarga bo’lish. Demak, sevgan kishisining ismiyoq shoiraning yuragini nimtalaydi, ammo u ana shu azobni o’ziga loyiq ko’rib, “jimgina” sevadi.

Sevaman...

O’limni sevganday

Har lahza ruhimni pichoqlab.

Men mangu yashayman,

go’rda ham

Dilimda ismingni quchoqlab!²

Inson har lahza o’limni bo’yniga olib yashashi kerak. Umr, shoir aytganiday, nishonga borib tekkan o’q. (A.Oripov) Lirik qahramon aytmoqchiki, hatto o’lganda ham ismingni dilimda saqlayman, ya’ni ikki dunyoda ham faqat va faqat unigina sevadi, uning xayoli, ishq bilan nafas oladi. Shu bois u mangu yashaydi, zero, oshiqqlarga o’lim yo’q, demoqchi.

Shoir she’rlarida fojiaiy lavhalar tasviri kishi qalbini junbushga keltiradi.

Muhabbat –qabrtosh,

Eng qadimiy tosh...

Qabrtosh qabrlar ustiga qo’yiladigan yodgorlik hisoblanadi. Ammo shoiraning muhabbatni qabrtosh deya ta’riflashi bejiz emas. Lirik qahramon nazdida, yorining qabriga qo’yadigan yodgorligi ham aynan muhabbatning o’zidir, boshqa narsa emas. Bordi-yu o’zi qabrda yotgan bo’lsa ham, muhabbatdan qabrtosh qo’yilishini istaydi. Muhabbatga tashnalik insonning qonida borligi, uning dunyo qadar qadimiy va bebaho tuyg’u ekanligini uqamiz misralardan.

Uning she’rlarida bevafoqlik, xiyonat, qolaversa, singan ko’ngil izzatoblari, ranj-alamlari aks etadi. Shoiraning “Bilaman” deb nomlangan she’rida o’zini kamtarlik bilan pastga urishlik, sevgan kishisini ustun qo’yishlik kabi holatlar aks etgan. Shunday bo’lsa ham, u fidoyilik ko’rsatib sevishdan to’xtamaydi. Chunki uning sevgisi haqiqiy, hech qanday manfaatsiz, beg’araz sevgi.

Bilaman: men uning tengi emasdim,

² https://tgstat.com/uz/channel/@Zebo_Mirzo

Lekin sevdim tengsiz muhabbat bilan.

Hijron tunlarida bor edi qasdim,

Men uni o'qidim yoniq dard bilan.

Lirik qahramon sevgilisiga o'zini nomunosibligini oshkora tan oladi, ammo ko'ngilga buyruq berib bo'lmaydi. Ishq uni egasidan so'rab ko'ngliga kirmaydi. U ato qilinadi. Ishq bu bir ilohiy ne'mat, tuyg'u. Ammo shunday buyuk ishqning sohibasi baxtli emas. Nega? Qachonki, ishq ikki tomonlama bo'lsagina, insonlar baxtli bo'ladilar. Lirik qahramonning taassuf qilishicha, u "Bir xazon bargchalik sevilganmas", shuning uchun "jimgina" yonib, "jimgina" kuyadi. Lekin uni xudo haqqi sevganligini tan oladi. Sevgisi rad etilgan inson uchun bu tan olish mardlikdir. Zebo Mirzo she'riyati o'zining intim tuyg'ularining ochiqligi, ustuvorligi, ehtirolarning kuchliligi bilan boshqa shoiralardan keskin farq qiladi.

Ko'zingizni qadaysiz ko'kka!

Boshingizdan

aylanadi Kun.

Kunlarimni berib yo'qlikka,

Men yig'ladim balki siz uchun!..

Tushimda ham

O'yladim sizni,

Izlab chiqdim tushlarimda ham.

Ozor ichra,

Odamzor ichra

Yolg'iz sizni izladim, Odam!

She'ning lirik qahramoni umr haqida, taqdir haqida o'yga toladi. Javobsiz sevgidan charchaganligini his qiladi. Endi u samoviy orzular, samoviy hislardan chekinadi, faqatgina ko'ngil dardini oladigan Odam izlashga tutinadi. Og'zidan gap emas, ko'nglidan dard oladigan odam izlaydi.

Inson hayotini bo'lishi mumkin bo'lgan ayriliqlar, judoliklar, javobsiz qolgan sevgi, xiyonat kabi motivlar ham shoira ijodida uchraydi. Nomi keltirilmagan bir she'rda ayriliqdan fig'on chekkan yor timsoli gavdalanadi:

His qildim

Ketishim kerakligini.

Gapirmadi.

Yuzini teskari burdi.

Go'yo borligimni unutgan kabi

Deraza yonida

Ma'nosiz turdi...

...U meni ko'rmasdi!³

³ https://tgstat.com/uz/channel/@Zebo_Mirzo

Ayrim hissiyotlarni soʻz bagʻriga sigʻdirib boʻlmaydi. Ularni ifodalash uchun kuy kerak boʻladi. Aslidayam insonning dardlari soʻz bagʻriga sigʻmagach kuy paydo boʻlgan ekan.

Bir moʻjizaga
Xuddi hozir shohid boʻlgani kabi
Olib qochar edi nigohlarini,
“titrardi qoʻllari,
titrardi labi...”

Ruhim eshigini ochiq qoldirib,
Koʻngil kirib keldi
nenidir sezib.

Vujudi yonardi...
qaroqlaridan

Bir qizning xayoli oʻtardi suzib!

Demak, yor unga beparvo, eʼtiborsiz. Endi u ayriliqqa mahkum, taqdirga koʻnishga majbur.

Nomahram
bir tanni
tirqish ortidan
koʻzlarim bexosdan koʻrib qolganday
Sachrab ketdim
Uyat,
Alam,
Ogʻriqdan,
U emas...

Goʻyo men gunoh qilganday!

Sevgani uchun oʻzini aybdor sezgan ayolning holiga achinasiz beixtiyor. Ushbu misralarda ayolning cheksiz dardi-armoni aks etgan. Eng ogʻir narsa, ayol kishining sevgisini tan olmaslik, zero asrlar mobaynida ayol sevgisi javobsiz qolib kelgan. Xiyonatga duch kelgan ayol qanday ahvolga tushishini tasavvur qilish mumkin.

Nafasim tiqildi:

-Men boray,-dedim,

Ketish yoʻqlik edi,

Qolmoqlik-oʻlim.

Behush kalovlanib chiqdim-u,qotdim,

Eshikka osilib yigʻladi qoʻlim.

-Qayt, - deb aytdi yurak,

-Qol,-demadi u.

Devorga suyanib kutdim bir muddat.

Umidning soʻnishi, ishonchning yoʻqolishi, sevgining oyoqosti qilinishi, ayolning tahqirlanishi bularning barchasi ruhni oʻldiradi, qalbni alamga oshno qiladi, koʻngilni qoldiradi.

Lirik qahramon oʻzidan yaxshiliklar koʻrib, buni javobsiz qoldirgan timsolning yetkazgan jabridan noliydi.

Bagʻringga uzalib yetmagan umrim,
Umrimning
Eng mahzun tunlari uchun!
Seni tushlarimda koʻrib sevingan
Men koʻrgan-koʻrmagan kunlarim uchun...
Senga malol kelgan Sevgim, xayolim,
Sevgimday sof
Achchiq yoshlarim haqqi,
Menga atalmagan muhabbating-u
Menga degan
Nafrat toshlaring haqqi...

Sheʼrni oʻqish jarayonida “Nafrat toshlaring haqqi..” misrasidan soʻng koʻp nuqtaning qoʻyilishi bejiz emas, hali lirik qahramonning koʻrgan sitamlari adogʻiga yetgan emas, ularni muxtasar qilib qoʻya qoladi. Yakuniy xulosasini tark etish orqali bildiradi:

Hammasi,
Hammasi,
Hammasi uchun!
Koʻzlarimni oʻydim bir oʻtkir tigʻ-la.
Senga azob boʻldi mening borligim,
Ketyapman...
...yoʻqligim
Uchun
Jim...
YIGʻLA!

“Dardlarini ichiga yutish”, “unsiz yigʻlash” naqadar ayanchli holat. Hattoki ovoz chiqarib baralla yigʻlay olmaslik qiyin holat.

Bor-yoʻgʻi – YURAKMAN
Mahtal bir ishqqa,
Barcha gunohingiz keladi kechgim.
Sochilib ketaman sizsiz boʻshliqqa,
Meni
terib
olmaydi
Hech kim!

Lirik qahramonning ruhiy holati faqatgina uning o'zigagina xos. Uning hissiyotlari, qalbida kechayotgan kechinmalar alamli. She'r his-tuyg'ularga boy, undagi hislar o'quvchiga ham yuqadi, uning qalbini ham entiktiradi.

Zebo Mirzo she'rlarida ayriliq mana shunday shakllarda kuylandi. Bu ayriliq rad etilish, haydalish, tan olinmaslik, xo'rlanish, sevilmaslik kabi xususiyatlarni o'zida jam etdi. Lirik qahramonning mavj urgan hislari toptaldi, g'ururi poymol etildi. U qalban ayriliqni, yolg'izlikni his qildi. Hamma narsaga chidash mumkin, ammo sevgining javobsiz qolishi har qanday insonning hayotiy haqiqatidagi adolatga putur yetkazadi. Lirik qahramon o'z qismatining mahzunligidan g'am chekar ekan, tuyg'ular tug'yoni borgan sari ko'kka bo'y chozib boraveradi.

Zebo Mirzo o'z tuyg'ularini baland pardalarda kuylay olgan ijodkor. Shoira tasvirlagan lirik kechinma va uning nozik jihatlarini jamuljam holda tasvirlash ijodkor mahoratining yetakchi xususiyatidir. Zebo Mirzo she'rlarida musavvirona ruh bor, dard bor, olov bor. Bu so'zlarni ushlab ko'rasiz, haroratini his qilasz, ranglaridan hayratlanasz. Va ko'nglingizga kirib borayotgan Tirik So'zning tovushlarini eshitasiz. Shoira lirikasi intim-lirika qonuniyatlariga to'la javob bera oladi. Jumladan, intim-lirika qalbning qalbg'a, shaxsning shaxsg'a dil rozini, arzu holini ifodalovchi janr ekanligi bilan ajralib turadi.

Misralarda Ayol qalbining iztiroblari yonadi, bu olov o'quvchini ham yodga oladi. U she'rxonni buyuk bir ishq sari yetaklaydi. Bir lahza bo'lsa-da, ko'ngil bilan yashash baxtini taqdim etadi.

...Soyang tushib o'tsa nigohlarimga!...

Qo'ling topib borsa qalbimni.

Ovozing sachragan havoga

shivirlab bossaydim labimni!

...ovozi o'psaydim, ovozi...

Sukunat bo'g'riqqan tunlardan

sug'urib olsaydi ovozi!

Dilimni yechsaydim behadik,

Ko'rsayding qo'llarim parvozin!

Nafasing o'tidan yaralsam,

tushlarimdan tushib kelsaydim.

Bir lahza o'zimni unutsam,

bir lahza o'zimni bilsaydim.⁴

Darhaqiqat, ijodkorning e'tibor topishi uchun misralar to'qish qobiliyatining o'zi kifoya emas. Ijodkor o'z zamoni ruhida o'sib-ulg'aygan ilg'or kishi sifatida fikrlay olsagina, voqea-hodisalarni chuqur mushohadadan o'tkazib to'g'ri

baholaydigan g'oyaviy-badiiy mukammal she'rlar yaratgandagina e'tibor qozonishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август. №32.
2. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент: Академнашр, 2018. 480 б.
3. Zebo Mirzo. Nur kukunlari: "Янги аср авлоди", 2004. –87 В.
4. Zebo Mirzo. Ishq. 2012.10-b
5. Xurshid Davron. Xurshid Do'stmuhammadni o'qib. | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)
6. https://tgstat.com/uz/channel/@Zebo_Mirzo